

## HUVAYDODA NAVOIYONA USLUB JILVASI

**Axtamova Mexrbonu Sirojiddin qizi**  
**Farg'ona davlat universiteti Filologiya**  
**va tillarni o'qitish: o'zbek tili yo'nalishi 3-bosqich talabasi.**

**Annotasiya:** Ushbu maqolada Huvaydo ijodining shakllanishida eng katta va eng salmoqli ta'sir aynan Alisher Navoiy merosiga tegishli bo'lgani. Shoirning g'azallaridagi ma'no teranligi, ishq va irfon talqini hamda obrazlar tizimi aynan Navoiy ruhiy maktabining davomiyati ekanini ochib berilgan. Bu ta'sirni Huvaydo g'azallarini tahlil qilganda, xususan Navoiyning "Shayx San'on" hikoyasidagi ma'naviy sinov va ilohiy muhabbat g'oyalari bilan uyg'unlikda yaqqol ko'rishimiz mumkin.

**Kalit so'zlar:** Navoiy, obraz, Shayx San'on, ilohiy muhabbat.

**Annotation:** This article argues that the greatest and most significant influence on the formation of Huvaido's work was precisely the legacy of Alisher Navoi. It is revealed that the depth of meaning in the poet's ghazals, the interpretation of love and wisdom, and the system of images are precisely the continuation of Navoi's spiritual school. We can clearly see this influence when analyzing Huvaido's ghazals, especially in their harmony with the ideas of spiritual test and divine love in Navoi's story "Shaykh San'on".

**Key words:** Navoi, image, Sheikh San'an, divine love

Ma'lumki, o'zbek adabiyoti uzoq va sermahsul tarixga ega bo'lib, har bir davr o'ziga xos taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tgan. XV asrning ikkinchi yarmiga kelib adabiyot mislsiz yuksalish bosqichiga chiqdi. Ayniqsa, Alisher Navoiy dahosining porlashi keyingi asrlarda voyaga yetgan ko'plab ijodkorlar uchun mustahkam maktab bo'lib xizmat qildi. XVI asrdan boshlab Navoiy an'analari davom ettirildi, zamon ruhiga mos yangi asarlar paydo bo'la boshladi. Bu jarayon XVII–XVIII asrlarda ham uzluksiz davom etdi.

Ana shu davrning yorqin vakillaridan biri — xo‘jandlik mashhur shoir Huvaydo bo‘lib, u o‘zining teran mazmunli, xalqona ohangdagi g‘azallari bilan o‘zbek adabiyoti xazinasidan munosib o‘rin egallagan.

Huvaydo (taxallus), asl ismi Muhammad Siddiq, XVIII asrning birinchi yarmida yashagan va Qo‘qon adabiy muhitining pishiqlik, yetuk namoyandalaridan biri bo‘lgan. Uning orifona, ishqiy va tasavvufiy ruhda bitilgan she‘rlari xalq orasida keng tarqalgan. Shoirni elga sevimli qilgan asosiy jihatlardan biri — uning soddalik, tiniqlik va xalqona iboralarni mahorat bilan qo‘llagan holda chuqur ma‘noli satrlar yaratganidir.

Huvaydoning devoni juda boy bo‘lib, unga 351 g‘azal, 28 qit‘a, 44 ruboiy, 41 to‘rtlik, 3 muxammas, 1 musaddas, 1 musamman, 1 mustazod va bir qancha nasriy hikoyatlar kiradi. Uning eng mashhur asari — xalq orasida “Rohati dil” nomi bilan tanilgan doston bo‘lib, unda chuqur tasavvufiy va axloqiy g‘oyalar talqin etiladi. Shoir asarlarining ko‘plab qo‘lyozma va toshbosma nusxalari mavjud bo‘lib, 2005 yilda ham ayrimlari alohida kitob holida chop etilgan.

Huvaydo ijodi va dunyoqarashining shakllanishida Yassaviy, Navoiy, So‘fi Olloyor, Mashrab kabi mutafakkirlarning tasavvufiy-falsafiy qarashlari katta ta‘sir ko‘rsatgan. Ayniqsa, Alisher Navoiy merosi shoir ruhiyatiga eng salmoqli ta‘sir bergan. Chunki Huvaydo g‘azallarida Navoiyning ma‘no chuqurligi, tashbeh va talmeh san‘atidagi noziklik, nafosatga yo‘g‘rilgan aruz ohangi o‘zining yorqin izini qoldirgan. Go‘yo Huvaydo qalamida Navoiyning ruhiy davomiyligi, uning ma‘naviy maktabi jilvalanadi.

Bunga yorqin misol qilib, Huvaydo ijodidagi quyidagi g‘azaldan tahlili sifatida baytlar keltiraman.

**Bir kuni oldimga keldi dilbari ayyor o‘zi,**

**Qosh qoqib ko‘nglimni oldi turfa shirinkor o‘zi.**

Ushbu baytda Huvaydo qalbiga ishq kirib kelishini, ma‘shuqasining go‘zalligi va nayrangkorligi bilan uni band qilishini tasvirlaydi. Shayx San‘on hikoyasida ham

Rumdagi Tarso qizi shunday nafosat va go‘zallik bilan shayxni o‘ziga tortadi, uning qalbini ishq olovi bilan egallaydi.

**So‘z qotib begonalardek, o‘zini toshlab yiroq,**

**Elni g‘ofil aylag'on ko‘p oqilu makkor o‘zi.**

Ushbu baytda ishqning sirli va hiyla bilan amalga oshishi, ma’shuqaning shayxni uzoqlik va sirlar bilan sinovga solishi ko‘rsatiladi. Shayx San’on ham Tarso qizining uyida, uning shartlari va nafis mayoli ta’sirida, atrofdagilardan yiroq, o‘z ishqining qudratida mutlaqo band bo‘ladi.

**Goh ko‘rinib, goh ko‘rinmay, goh chiqar olding'a ul,**

**Ko‘rinib yuz sheva birla oshiqin aldor o‘zi.**

Ushbu baytda ma’shuqaning turli jilvalari, o‘zini ko‘rsatishi va yashirishi orqali oshiqni sinovdan o‘tkazishi tasvirlangan. Shayx San’on hikoyasida Tarso qizi ham shunday sirli va ayyor tarzda shayxning sabrini sinab, ishq olovini kuchaytiradi.

**Goh mastu, goh behud, goh telba, goh sog‘**

**Aylabon, boshimga soldi turfa mushkul kor o‘zi.**

Ushbu baytda Huvaydo inson qalbining turfa holatlarini, ruhiy charchoq va nafsiy chalg‘ishlarni ifodalaydi. Bu Shayx San’on hikoyasida Shayxning Rumga safar qilib, nasroniy qizga oshiq bo‘lishi va o‘z nafsini turli sinovlar orqali sinashi bilan bog‘liq. Shayx San’on ham ilk boshda o‘zining ulug‘ ilm va riyozatiga qaramay, ishq qudratiga giriftor bo‘lib, ruhiy charchoq va ichki qarama-qarshiliklarni boshdan kechiradi.

**Goh zohid, goh fosiq, goh kofir aylabon,**

**Oshiqi bechoraga bog‘latquchi zunnor o‘zi.**

Ushbu baytda Huvaydo insonning ikki tomonlama tabiatini ochib beradi — oshiq qalbning zaifligi va ichki qarama-qarshiliklarini ko‘rsatadi. Shayx San’on ham Tarso qizining shartlariga duch kelib, ruhiy sinov va fanoyi nafs bosqichidan o‘tadi: u o‘z dini va maqomini, ilm va obro‘ni ishq oldida mutlaqo unutadi, qalbi butunlay ma’shuqasining ixtiyoriga o‘tadi.

**Har jafou javr qilsa, Ey Huvaydo, qochmag'il,**

**Sabru toqat aylasang, oldingga kelg'ay yor o‘zi.**

Ushbu baytda sabr va toqatning zarurligi ta'kidlanadi. Shayx San'on hikoyasida ham ishq sinovlariga chidab, sabr qilgani uchun Tarso qizi shayxning oldiga keladi, uning qo'lida o'z dinini qabul qilib, uzrini aytadi va vafot etadi. Shu tariqa, Huvaydo g'azalidagi sabr, toqat va chidamlilik motivi Shayx San'onning ishqiy va ruhiy sinovlari bilan uyg'unlashib, insonning haqiqiy fidoyiligi va ma'shuqa oldidagi sadoqatini ko'rsatadi.

**Xulosa** qilib aytganda, Huvaydo g'azallari inson qalbining turfa holatlari, ishq olovi va nafsiy sinovlarini chuqur badiiy ohangda tasvirlaydi. Baytlarda sabr, toqat va ma'shuqa oldidagi fidoyilik motivlari yaqqol seziladi. Shayx San'on hikoyasidagi voqealar bilan uyg'unlashib, g'azallar ishq yo'lidagi ruhiy sinovlar, insonning ichki kurashlari va ma'naviy o'sishini ochib beradi. Ma'shuqaning sirli jilvalari va oshiqni sinovdan o'tkazishi orqali Huvaydo qalbning zaif va kuchli tomonlarini ham aks ettiradi. Shu tariqa, uning ijodida Navoiyning hikoyaviy va ma'naviy ta'siri aniq ko'rinib, ishq, sabr-toqat va insoniy sadoqat mavzularini chuqur va xalqona shaklda uyg'unlashtiradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Xo'janazar Huvaydo. Devon. Toshkent.: Yangi asr avlodi, 2005.
2. Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami, X jildlik. -Toshkent.
3. Huvaydo. Devon. O'z FA SHI inv.7484
4. Alisher Navoiy. MAT. 20 tomlik. 12-tom. T.: Fan, 1997.
5. Sharipov Sh., Alisher Navoiy „Lison ut-tayr“ dostonining genezisi va g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, T., 1982;  
ziyonet.uz